

# INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 6  
ISSUE 1 2026

# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

6-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ  
ТОМ-6, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY  
VOLUME-6, ISSUE-1



TOSHKENT - 2026



# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2026-1>

**BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:**

**MIRZAYEV IBODULLA**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**MIRZAYEV IBODULLA**  
DSc, professor (Uzbekistan)

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ  
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:**

**JABBOROV NURBOY**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**ЖАББОРОВ НУРБОЙ**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**JABBOROV NURBOY**  
DSc, professor (Uzbekistan)

**TAHRIRIY HAY'ATI:**

**Muhiddinov Muslihiddin**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Dilorom Salohiy**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Sodiqov Qosimjon**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Binnatova Almaz Ulvi**  
f.f.d., professor (Ozarbayjon)  
**To'xliyev Boqijon**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Shodmonov Nafas**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Asadov Maqsud**  
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)  
**Yo'ldoshev Qozoqboy**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Jo'raqulov Uzoq**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Funda Toprak**  
f.f.d., professor (Turkiya)  
**Nabiulina Guzal**  
f.f.d., professor (Tatariston)  
**Yusupova Dilnavoz**  
DSc, professor (O'zbekiston)  
**Sirojiddin Xo'jaqulov**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Rahim Ibrohim**  
f.f.d., professor (Afg'oniston)  
**Turobov Abdurahim**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Muhitdinova Badia**  
DSc, professor (O'zbekiston)  
**Muhammadiyev Ahadjon**  
DSc, dotsent (O'zbekiston)  
**Suvonova Jumagul**  
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)  
**Mirzayev Rahmatilla**  
y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)  
**Abdullayeva Albina**  
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)  
**Nurova Gulchehra**  
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)  
**Sultanov Tulkin**  
PhD, dotsent (O'zbekiston)  
**Ubaydullayev Normuhammad**  
PhD, dotsent (O'zbekiston)  
**Ruzmanova Roxila**  
dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)  
**Narziyeva Ma'mura**  
PhD, kotib (O'zbekiston)

**ILMIY MASLAHAT KENGASHI**

**Xalmuradov Rustam**  
t.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Sirojiddinov Shuhrat**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Eshqobil Shukur**  
O'zbekiston Respublikasida  
xizmat ko'rsatgan madaniyat  
xodimi, shoir (O'zbekiston)  
**Rixsiyeva Gulchehra**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Benedek Peri**  
f.f.d., professor (Vengriya)  
**Olimov Karomatillo**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Dadaboyev Hamidulla**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Shomusarov Shorustam**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Dyu Rye Andre**  
f.f.d., professor (Fransiya)  
**Hamroyev Juma**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Aftondil Erkinov**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Hasanov Shavkat**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Umurova Go'zal**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Xalliyeva Gulnoz**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Alim Labib**  
f.f.d., professor (Afg'oniston)

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Мухиддинов Муслихиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Дилором Салохий**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Содиков Косимжон**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Биннатова Алмаз Улви**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)  
**Тухлиев Бокижон**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Шодмонов Нафас**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Асадов Максуд**  
д.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Юлдашев Казакбай**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Журакулов Узок**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Фунда Топрак**  
д.ф.н., профессор (Турция)  
**Набиуллина Гузаль**  
д.ф.н., профессор (Татаристан)  
**Юсупова Дилнавоз**  
DSc, профессор (Узбекистан)  
**Сирожидин Хужакулов**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Рахим Иброхим**  
д.ф.н., профессор (Афганистан)  
**Туробов Абдурахим**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Мухитдинова Бадиа**  
DSc, профессор (Узбекистан)  
**Мухаммадиев Ахаджон**  
DSc, доцент (Узбекистан)  
**Сувонова Жумагул**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Мирзаев Рахматилла**  
к.ю.н., доцент (Узбекистан)  
**Абдуллаева Альбина**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Нурова Гулчехра**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Султанов Тулкин**  
PhD, доцент (Узбекистан)  
**Убайдуллаев Нормухаммад**  
PhD, доцент (Узбекистан)  
**Рузманова Рохила**  
доц., отв. секретарь (Узбекистан)  
**Нарзиева Мамура**  
PhD, секретарь (Узбекистан)

## НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

**Халмурадов Рустам**  
д.т.н., профессор (Узбекистан)  
**Сирожидинов Шухрат**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Эшқобил Шуккур**  
Заслуженный работник культуры Республики  
Узбекистан, поэт (Узбекистан)  
**Рихсиева Гулчехра**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Бенедек Пери**  
д.ф.н., профессор (Венгрия)  
**Олимов Кароматилло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Дадабаев Хамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Шомусаров Шорустам**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Дю Рье Андре**  
д.ф.н., профессор (Франция)  
**Хамроев Джума**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Афтондил Эркинов**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Хасанов Шавкат**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Умурова Гузал**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Халлиева Гулноз**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Алим Лабиб**  
д.ф.н., профессор (Афганистан)

## EDITORIAL BOARD:

**Mukhiddinov Muslikhiddin**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Dilorom Salokhiy**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Sodikov Kosimjon**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Binnatova Almaz Ulvi**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)*

**Tukhliev Bokijon**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Shodmonov Nafas**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Asadov Makhsud**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Yuldoshev Kozokboy**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Jurakulov Uzok**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Funda Toprak**  
*DSc, prof. (Türkiye)*

**Nabiulina Guzal**  
*DSc., prof. (Tatarstan)*

**Yusupova Dilnavoz**  
*DSc, prof. (Uzbekistan)*

**Sirojiddin Khujakulov**  
*DSc, prof. (Uzbekistan)*

**Rakhim Ibrokhim**  
*DSc, prof. (Afghanistan)*

**Turobov Abdurakhim**  
*DSc, prof. (Uzbekistan)*

**Mukhitdinova Badia**  
*DSc, prof. (Uzbekistan)*

**Mukhammadiyev Akhadjon**  
*DSc, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Suvonova Jumagul**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Mirzayev Rahmatilla**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Abdullayeva Albina**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Nurova Gulchekhra**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Sultanov Tulkin**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Ubaydullayev Normuhammad**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Ruzmanova Rokhila**  
*Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)*

**Narziyeva Ma'mura**  
*PhD, Secretary (Uzbekistan)*

## SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

**Khalmuradov Rustam**  
*Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Sirojiddinov Shukhrat**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Eshqobil Shukur**  
*Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)*

**Rikhsieva Gulchekhra**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Benedek Peri**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)*

**Olimov Karomatullo**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Dadaboev Khamidulla**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Shomusarov Shorustam**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Dyu Rye Andre**  
*Doc. of philol. scien., prof. (France)*

**Khamroev Juma**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Aftondil Erkinov**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Khasanov Shavkat**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Umurova Guzal**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Khallieva Gulnoz**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Alim Labib**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)*

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI**

<b>1. Афтондил ЭРКИНОВ</b> АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЭРОН ҚЎЛЁЗМАЛАРИ.....	7
<b>2. Sherxon QORAYEV</b> O'ZBEK XONLIKLARIDA NAVOIYXONLIK TENDENSIYALARI (XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON FERUZNING "NAVOIYXONLIK" KECHALARI MISOLIDA)...	15
<b>3. Nigora TO'XTAQULOVA</b> ALISHER NAVOIY HIKOYALARINING FOLKLOR BILAN BOG'LANISHI ("MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASI MISOLIDA).....	21
<b>4. Jumagul SUVONOVA</b> ALISHER NAVOIY VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA TARBIYAVIY G'OYALAR UZVIYLIGI AN'ANA VA ZAMON TALQINIDA.....	30
<b>5. Zulfiya RASULOVA</b> УЗБЕКСКО-ТАДЖИКСКИЕ ЛИТЕРАТУРНЫЕ СВЯЗИ XX ВЕКА.....	37
<b>6. Sitara QODIRQULOVA</b> ALISHER NAVOIY LIRIKASI TARJIMONI ALEKSANDR NAUMOV HAQIDA.....	43

**NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI**


<b>1. Shavkat YANGIBOYEV</b> "ILK DEVON" SHE'RLARINING ALISHER NAVOIYNING BOSHQA DEVONLARIGA JORIYLANISHI.....	48
<b>2. Shaxnoza KAXXAROVA</b> ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER" MANOQIBIDA KOMIL INSON TALQINI.....	58
<b>3. Sherxon QORAYEV</b> ALISHER NAVOIY "OLIIY MAJLISLARI" VA NADIMLARI.....	70
<b>4. Umida OTAYAROVA</b> "XAMSA"LARNING SO'NGGI DOSTONLARIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI.....	79
<b>5. Dilfuza RAXMATOVA</b> NAVOIY G'AZALLARIDA SOLETSIZMNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	85
<b>6. Dilafro'z TAMIKAYEVA</b> ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI VA UNI TADQIQ ETISH MASALALARI.....	92

**NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI**

<b>1. Umida UBAYDULLAYEVA</b> TILSHUNOSLIKDA LISONIY MANZARA KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....	99
<b>2. Rustamjon JABBOROV</b> BOBURIYLARNING TURKIY TIL VA ADABIYOT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI.....	105

**TAQRIZ, TAHLIL VA TARJIMA**


<b>1. Iroda ISHONXANOVA</b> O'ZBEK ADABIYOTI YO'LBOSHCHISIGA BAG'ISHLANGAN NASHR.....	112
<b>2. Roxila RUZMANOVA</b> TURK DUNYOSINING YIRIK TADQIQOTCHISI.....	122



**Dilafruz TAMIKAYEVA**  
SamDCHTI qoshidagi  
akademik litsey o'qituvchisi

## ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI VA UNI TADQIQ ETISH MASALALARI

**For citation:** Tamikayeva Dilafro'z. THE LANGUAGE OF ALISHER NAVOI'S WORKS AND ISSUES OF ITS STUDY. Alisher Navoi. 2026, vol. 6, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19412136>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlari tilining lingvistik xususiyatlari hamda ularni o'rganishning ilmiy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda Navoiy ijodida aks etgan eski o'zbek adabiy tilining leksik boyligi, grammatik tuzilishi va uslubiy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, adib asarlarining turkiy tillar taraqqiyotidagi o'rni hamda ularni o'rganish bilan bog'liq ayrim ilmiy muammolar ko'rib chiqiladi. Natijada Navoiy merosining o'zbek tilshunosligi va turkiyshunoslik rivojidadagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** "turk" so'zi, leksik tarkib, uslubiy imkoniyatlar, "Lug'ati Navoiy", uyg'ur, arabcha, forscha-tojikcha so'zlar.

---

**Дилафруз ТАМИКАЕВА**  
преподаватель академического лица  
при Самаркандском государственном  
институте иностранных языков

## ЯЗЫК ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ И ВОПРОСЫ ЕГО ИССЛЕДОВАНИЯ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются лингвистические особенности языка произведений Алишера Навои, а также научное значение их изучения. В исследовании анализируются лексическое богатство, грамматическая структура и стилистические возможности староузбекского литературного языка, отражённые в творчестве Навои. Кроме того, рассматривается роль произведений поэта в развитии тюркских языков, а также некоторые научные проблемы, связанные с их изучением. В результате научно обосновывается значение наследия Навои для развития узбекского языкознания и тюркологии.

**Ключевые слова:** слово «тюрк», лексический состав, стилистические возможности, «Лугати Навои», уйгурский, арабские, персидско-таджикские слова.

**Tamikayeva Dilafruz Maxmudova**  
Teacher of the Academic Lyceum under  
Samarkand State Institute of Foreign Languages

## THE LANGUAGE OF ALISHER NAVOI'S WORKS AND ISSUES OF ITS STUDY

### ABSTRACT

This article examines the linguistic features of the language of the works of Alisher Navoi as well as the scientific significance of their study. The research analyzes the lexical richness, grammatical structure, and stylistic possibilities of the Old Uzbek literary language reflected in Navoi's works. In addition, the role of the poet's works in the development of Turkic languages and several scholarly issues related to their study are considered. As a result, the significance of Navoi's heritage for the development of Uzbek linguistics and Turkology is scientifically substantiated.

**Keywords:** the word "Turk", lexical composition, stylistic possibilities, "Lugati Navoi", Uyghur, Arabic, Persian-Tajik words.

### KIRISH

Buyuk mutafakkir va adib Alisher Navoiy ijodi nafaqat badiiy-estetik qiymati, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham nihoyatda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Navoiy asarlari tilini tadqiq etish o'zbek tilshunosligi hamda butun turkiyshunoslik taraqqiyoti uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki Navoiy ijodida XV asr eski o'zbek adabiy tilining mukammal shakli namoyon bo'lib, u turkiy til imkoniyatlarining kengligini va ifoda qudratini yorqin ko'rsatib beradi.

Navoiy tili o'zining boy leksik tarkibi, rang-barang uslubiy imkoniyatlari hamda mukammal grammatik qurilishi bilan ajralib turadi. Adib asarlarida turkiy so'zlar bilan bir qatorda arab va fors tillaridan kirib kelgan leksik birliklar ham mahorat bilan qo'llangan. Biroq bu unsurlar tilning tabiiy rivojiga mos ravishda ishlatilgan bo'lib, ular matnning badiiy-estetik ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan Navoiy asarlari tilini o'rganish turkiy tillarning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Navoiy asarlarining grammatik tuzilishi ham alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Unda so'z yasalishi, so'z turkumlarining qo'llanishi, sintaktik konstruksiyalar hamda uslubiy vositalar nihoyatda boy va rang-barang tarzda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, so'zlarning semantik kengayishi, ko'chma ma'noda qo'llanishi, metafora, tashbeh va boshqa badiiy tasvir vositalarining faol ishlatilishi tilning estetik imkoniyatlarini yanada kengaytirgan. Bu esa Navoiy tilining nafaqat lingvistik, balki lingvopoetik jihatdan ham chuqur tadqiq etilishini taqozo etadi.

### ASOSIY QISM

Bugungi kunda Navoiy asarlari tilini o'rganish bir qator dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, eski o'zbek tilining leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash, grammatik tizimini tadqiq etish, badiiy tasvir vositalarining lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish hamda Navoiy tilining zamonaviy o'zbek adabiy tiliga ta'sirini o'rganish shular jumlasidandir. Bu tadqiqotlar til tarixini yoritish bilan birga, milliy adabiy til taraqqiyotining muhim bosqichlarini ham aniqlash imkonini beradi.

Ma'lumki, akademik N.I.Konrad Alisher Navoiy ijodi va "Xamsa"ning milliy va umuminsoniy ahamiyati to'g'risida o'z vaqtida nazariy jihatdan asoslangan muhim fikrlarni bildirgan edi. Uning "Tanlangan asarlari"ga "Markaziy Sharq uyg'onishi va Alisher Navoiy" nomli maqola kiritilgan. Bu maqolada Amir Temur tuzgan davlat Aleksandr Makedonskiy ruhini qayta tiklaganday bo'ldi, – deyiladi. – Faqat bu qayta tiklanish madaniy sohada Renessans shaklini oladi va Alisher Navoiy "Xamsa"sida o'z mujassamini topadi". "Kutilmagan bir hodisa, deb davom etadi N.I.Konrad o'zining bu maqolasida, bu ulug' shoir, mutafakkir shoir, etnik jihatdan xilma-xil bo'lgan ulkan olamga mansub bo'lgani holda o'zbek she'riyatining klassigi va o'zbek adabiyotining asoschisi deb tan olindi. Uni juda katta kengliklardan torroq bir doiraga olib kirganday bo'ldik. Navoiyning qahramonlari Farhod Xitoydan, Iskandar Yunondan, Shirin Armanistondan, Qays Arabistondan, Shopur – Eronidan. Bu obrazlarni yaratgan Alisher Navoiy esa o'zbek xalqining shoiri.

Avval bu hodisa kishini hayratga soladi, xiyol ranjitganday bo'ladi, lekin o'ylab ko'rib, bu hodisaning qonuniyligini tushuna boshlaymiz. Nafaqat tushunamiz, balki bu hodisada jahon adabiyoti tarixining rivojiga xos eng muhim nuqtalardan birini ko'rganday bo'lamiz. XV asr Alisher Navoiy yashagan mintaqada Renessans asri bo'ldi. O'rta asrlar o'tmishiga aylangan bu davrda milliy davlatlar paydo bo'ladi, xalq millatga aylana boshlaydi. O'zbeklar uchun bu hodisa aynan Alisher Navoiy ijodidan boshlanadi" [Конрад, 1978:96-97].

Sadridin Ayniy yuqorida biz keltirgan fikrini yana quyidagicha davom ettirgan edi: "Navoiy asarlarida "turk" so'zi ko'p ishlatiladi. Muallif bu so'z bilan ko'proq O'rta Osiyodagi bugungi o'zbeklarning bobolarini nazarda tutadi. Chunki agar uning maqsadi umuman turkiy tilda gapiradiganlar bo'lsa edi, oxirgi ikki misrada turkmonni turkdan ajratib ko'rsatmas edi, "ko'ngilni bermish so'zimga ne yolg'iz turkjon, balki turkmon ham" demas edi" [Айний, 1947: 190].

Alisher Navoiy asarlari tilini o'rganishga qiziqish shoir yashagan XV asrdan boshlangan edi. Masalan, XV-XII asrlarda yaratilgan "Badoye ul-lug'ot", "Abushqa", "Sangloh", "Lug'ati Navoiy", "Lug'ati turkiy", "Kitobi lug'ati atrokiya", "Farhangi Hazrati Mir Alisher mulaqqab ba al-Navoiy", "Xamsa bo halli lug'at" kabi leksikografik asarlarda so'zlar izohini ta'kidlash, asoslash maqsadida Alisher Navoiy asarlaridan xarakterli misollar keltirilgan edi [Умаров, 1992:35 ]

Aslida Alisher Navoiy asarlari tilining o'rganilish tarixi E.Fozilov va U.Sanaqulovlarning maqolasida ilk bor ma'lum darajada yoritilgandi [81, 61-62]. Alisher Navoiy asarlari tilini o'rganish ishi uning tiliga asos bo'lgan dialekt va shevalarni aniqlashdan boshlangan edi. Sharqshunos olimlar o'rtasida uzoq yillar jiddiy tortishuvga sabab bo'lgan bu masala Zahiriddin Muhammad Boburning quyidagi so'zlaridan boshlangan edi: "Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam birla rostdur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning susannafoti bo vujudkim, Xirida nash'u namo topibdur, bu til biladur" [Боғур, 1989: 6]. Boburning bu fikrini va Alisher Navoiy tilining dialektal asoslarini, uning vokalizmi (unlilar tarkibi)ni aniqlash ustida tarixchi, tilshunos va, umuman, sharqshunos olimlardan juda ko'plari fikr-mulohazalar bildirganlar, munozaralar yuritganlar. Bu munozarada akademik V.V.Bartold, G.Vamberi, I.N.Beryozin, N.I.Ilminskiy, P.M.Melioranskiy, A.N.Samoylovich, V.M.Jirmunskiy, A.N.Kononov, N.K.Dmitriyev, Ye.E.Bertels, A.Y.Yakubovskiy, Y.D.Polivanov, G'ozzi Olim Yunusov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, S.N.Ivanov, V.M.Nasilov, E.Najip, Karl Brokkelman, Yanosh Ekman, A.M.Shcherbak, S.Ibrohimov, F.Abdullayev, A.Rustamov, E.I.Fozilov, G.F.Blagova, Sh.Shukurov, U.Tursunov, Olim Usmon, X.Doniyorov, E.Umarov, B.Bafojev, S.Ashirboyev, J.Hamdami, U.Sanaqulov kabi olimlar ishtirok etganlar.

Masalan, professor F.Abdullayev ana shu munozarali masalaga o'z munosabatini bildirar ekan, quyidagi xulosalarga keladi:

1. Alisher Navoiy hech qachon Andijonda bo'lmagan.
2. Boburning o'z asarlari tili mazkur shevaga yaqin deb faraz qilsak, Navoiy va Bobur asarlari tili o'rtasida ancha dialektal farqlar bor.
3. Alisher Navoiy yaratgan asarlar tili g'oyat murakkab va dialektal jihatdan rang-barang bo'lib, uning hajmi va salmog'i shu qadar zo'r ediki, uni bir dialekt, hatto butun bir lahja ramkasiga sig'dirib bo'lmaydi.
4. Alisher Navoiy asarlari tilida hozirgi O'zbekiston territoriyasiga hamda qo'shni elementlari mavjud.
5. Hozirgi qozoq, tatar, uyg'ur, turkman, ozarbayjon, usmonli turk kabi tillarga xos leksik qatlam va grammatik formalar XV asr o'zbek adabiy tilida anchagina miqdorda uchraydi, lekin bunday xususiyatlarning ko'pchiligi andijon shevasida yo'q. Boburning o'z asarlarida ham bunday elementlar kamdan-kam uchraydi.
6. Navoiy asarlari tilida qadimgi uyg'ur va qadimgi urxun yodgorliklari (runik yozuvlari)ga xos bo'lgan elementlar ham mavjudki, uning tarixiy ildizini faqat bir yoki bir grupp shevalardan axtarish kutilgan natijani bermaydi.
7. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlari tilida boshqa yozuv yodgorliklarida uchramaydigan yoki juda kam uchraydigan grammatik elementlar borligi qayd qilingan, andijon shevasida ham,

boshqa o‘zbek shevalarida ham ular hanuzgacha qayd qilinmadi, boshqa turkiy tillarda ham uchramadi.

8. Nihoyat, Navoiy asarlari tilida urug‘dosh bo‘lmagan tillardan olingan so‘zlar o‘sha davrdagi adabiy til leksik qatlamining anchagina foyizini tashkil qiladi, ayrim grammatik formalar, masalan, arab va fors-tojik grammatikasi elementlari, jonli morfologik ko‘rsatkichlar sifatida mavjud. Andijon shevasida esa bu qadar chet til elementlarining bo‘lishi ehtimoldan juda uzoq...”

Alisher Navoiy asarlari tilining fonetik xususiyatlari o‘z vaqtida A.K.Borovkov, A.M.Shcherbak, keyinchalik A.Rustamov [8, 258-278], X.Doniyorov [8, 279-292] kabi olimlar tomonidan maxsus o‘rganilgan. Agar A.K.Borovkov Navoiy asarlari tilida sakkizta unli tovush bor deb hisoblagan bo‘lsa, A.M.Shcherbak ham keyinchalik bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. A.Rustamov esa Navoiy asarlari tilida 9 ta unli fonema va 25 ta undosh fonema mavjudligini ancha ishonarli dalillar bilan asoslashga intiladi [8, 258-278]

X.Doniyorov “Alisher Navoiy asarlari tilining vokalizmi umuman 11 tovushdan iborat, shulardan 7-8 tasi fonema bo‘lsa, qolgan 4 tasi yoki 3 tasi variant holida uchragan bo‘lishi mumkin. Navoiy asarlari tilining vokalizmini bunday belgilash Navoiy tilining andijon shevasiga yaqin bo‘lganligini ochib berishga ham yordam beradi” [8, 287-288], - deb hisoblagan edi.

Shuni ta’kidlash lozimki, shu kunga qadar Alisher Navoiy asarlari tilining dialektal asoslarini belgilash, uning tili “andijon shevasiga mosligi” haqidagi fikrlar navoiyshunoslikda o‘zining aniq isbotini topganicha yo‘q.

Keyingi chorak asr mobaynida Alisher Navoiy asarlari tilining leksikasi, morfologiyasi, sintaktik qurilishini tadqiq etish sohasida tilshunoslikda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Masalan, A.Rustamovning doktorlik dissertatsiyasi Alisher Navoiy asarlari tilining fonetik va morfologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan edi. Keyinchalik olimning bu izlanishlari samarasi sifatida akademik G‘Abdurahmonov bilan hamkorlikda yaratgan monografiyasi yuzaga keldi<sup>10</sup>. Akademik A.Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” nomli monografiyasi ham nashr etildi [60]. Bu ishning dastlabki bobi Navoiyning falsafiy aqidalari tahliliga bag‘ishlangan [60, 7-29]. Asarning keyingi boblarida esa Navoiyning badiiy vositalari, qofiya va saj‘lari, vaznlari o‘rganiladi [60, 30-124]. Oxirgi bobda ulug‘ shoirning badiiy mahorati, yetuklik asoslari tahlil qilinadi [60, 125-193].

Alisher Navoiy asarlari leksikasini tadqiq etishda filologiya fanlari doktori B.Bafoyevning alohida ulushi bor. Bu olimning nomzodlik ishi Alisher Navoiy asarlarida qo‘shma otlarning struktural-grammatik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan edi<sup>11</sup>. Keyinchalik B.Bafoyev XX asrning 70-yillaridan boshlab Alisher Navoiy asarlarida hindcha, yunoncha, arabcha, forschatojikcha so‘zlar, rang bildiruvchi so‘zlarni o‘rganishga doir “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Adabiy \_ meros” kabi jurnallarda, “Navoiy va ijod saboqlari” (1981), “Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari” (1993) kabi to‘plamlarda qator maqolalar e‘lon qildi [19, 114-131; 20, 184-207 va boshqalar). 1983-yilda olimning “Navoiy asarlari leksikasi” nomli monografiyasi e‘lon qilindi [18]. Bu ish ikki katta bobdan iborat bo‘lib, uning dastlabki bobi “Alisher Navoiy asarlari leksikasini statistik o‘rganish natijalari” deb nomlangan [18, 15-44]. Mazkur bobda Alisher Navoiyning turkiy tilda yozilgan 24 ta asaridagi so‘zlarning lingvostatistik tahlili keltirilib, unda jami 26.035 ta so‘z qo‘llangani aniqlangan hamda bu ma‘lumotlar quyidagicha jadval asosida berilgan:

Alisher Navoiy asarlari onomastikasi masalalari Sh. Yoqubov tomonidan maxsus tadqiq etildi [Ёқубов, 1994: 64]. Bu ishda Navoiy asarlarida qo‘llangan bir yarim mingdan ortiq kishi ismlari, astronimlar, patronimlar, zoonimlar, xronimlar, etnonimlar, toponimlar singari onomastik material to‘planib tahlil qilingan. Bu ish o‘zbek tarixiy onomastikasi sohasiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘ldi. Shundan keyin N.Husanov XV asr o‘zbek yozma yodgorliklari tili (asosan Alisher Navoiy asarlari tili)da qo‘llangan antroponimlarning leksik - semantik va uslubiy xususiyatlari tadqiq etish sohasida salmoqli natijalarga erishdi [Хусанов, 1991:126]. Ikki kitobdan iborat tadqiqotning birinchi qismida o‘zbek nomshunosligi va tarixiy antroponimiyaning nazariy muammolari o‘rganiladi, afsonaviy-diniy nomlar (payg‘ambarlar, ularning ajdod-avlodlari, Muhammadning ajdod-avlodlari, xalifalar, avliyolar, farishtalarning nomlari)ning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan. Ikkinchi kitobda esa antroponimlarning turli xil badiiy san‘atlarni vujudga keltirishdagi imkoniyatlari

yoritilgan. H.Eshonqulov Alisher Navoiy she'riyatida Utorid, Zuhra, Quyosh, Mirrix, Mushtariy, Zuhra singari samoviy timsollarning qo'llanish xususiyatlari, bu sohada shoir mahorati masalalari o'rganiladi [Эшонкулов, 1999: 25]. Adabiyotshunos olimlarning Alisher Navoiy ijodiga doir tadqiqotlarida ham keyingi yillarda ulug' shoirning tildan, so'zdan foydalanish mahorati haqida muhim fikr-mulohazalar bayon qilinmoqda. Masalan, akademik Oybek o'zining navoiyshunoslikka doir tadqiqotlaridan birini "Xamsa"ning asosiy obrazlari tahliliga bag'ishlagan edi. Oybekning bu tadqiqoti 1936-yil yozilgan bo'lib, 1967-yilga kelib "Navoiy gulshani" nomli Oybekning Navoiy haqidagi ilmiy maqolalar to'plamida ilk marta nashr etilgan edi [52, 71-124].

Alisher Navoiy ijodini, xususan, uning "Xamsa"sini keng planda tadqiq etishga yirik navoiyshunos olim Maqsud Shayxzoda ham alohida e'tibor bilan qaragan edi. Uning olti tomlik "Asarlar"ining 4-tomi "G'azal mulkingning sultoni" deb ataladi hamda u Alisher Navoiy haqidagi tadqiqot va maqolalardan tuzilgan [84]. Olimning ta'kidlashicha, "Xamsa"ning V so'nggi dostoni bo'lmish "Saddi Iskandariy"ning bosh qahramoni Iskandar o'zining xarakter va yo'nalishi bilan alohida bir o'rin tutadi. Bu ulug' sarkarda, dono davlat rahbari, olim, faylasuf bir shaxsdir. Bu obrazni yaratish uchun tarixiy baza mashhur Aleksandr Makedonskiyning (miloddan to'rt asr muqaddam yashagan) hayot va yurishlari bo'lgan bo'lsa ham, Navoiy bu yerda Iskandarning tarixiy suratini emas, balki shu buyuk siymodan qisman foydalanib, yangi badiiy obraz yaratib berdi..." [84, 153]. Maqsud Shayxzoda o'z tadqiqotida "Xamsa" dostonlari, xususan "Saddi Iskandariy" dostonida genial shoirning badiiy til vositalaridan foydalanish mahorati haqida ham fikr-mulohazalar bildiradi.

Muyassar Akbarova, Gulbahor Rahimova, Ma'rifat Rajabova kabi bir qator adabiyotshunos olimlarning nomzodlik ishlarida shoir Alisher Navoiyning qofiya yaratishda, hasbi hol she'rlarida hamda "Nazmul javohir" asarida badiiy so'z imkoniyatlaridan foydalanish mahorati ham ma'lum darajada o'rganilgan edi [Акбарова, 1997: 206]<sup>15</sup>. Dilorom Salohiy "Navoiyning she'riy uslubi masalalari" nomli monografiyasi (2006)da ulug' shoir lirik merosining matniy takomili va tasvir mahorati muammolari keng tahlil qilinadi. Asarning alohida bobi Alisher Navoiy lirikasida badiiy so'z talqini muammolariga bag'ishlangan. Bu ishda haqqoniy ta'kidlanganidek, "shoir lirik ijodi misolida turkiy til imkoniyatlari, yozma adabiyotda stilistika qonuniyatlari, og'zaki badiiy ijodning lirikaga ta'siri masalalari, umuman, o'z davri poetik uslubiga xos muhim masalalarni muayyan aspektlarda ko'rib chiqib, ilmiy analiz qilishga muvaffaq bo'ldi. Navoiy she'rlarida g'oyaviy mazmun va badiiy shakl omillarining turli ko'rinishlardagi uyg'unligiga erishar ekan, bu mazmundagi estetik prinsiplarining yangi qirralarini namoyish etdi" [Salohiy, 2006:182].

Adabiyotshunos olim Yo.Is'hoqovning "Navoiy poetikasi" nomli monografiyasida poetik tasvirning bir qancha usullari va vositalari shoir lirikasi misolida keng tahlil qilingan. Jumladan, olim Navoiy lirikasidagi ranglar ramzi tahliliga alohida e'tibor qaratgan [33, 102-143]. Alisher Navoiy ijodini, xususan, uning badiiy til mahoratini o'rganish sohasida "Alisher Navoiy merosining jahon sivilizatsiyasida tutgan ulkan mavqeyi" (Samarqand, 2001), "Alisher Navoiy ijodi va ma'naviy-madaniy taraqqiyot masalalari" (Navoiy, 2001) mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyalari materiallari ham alohida o'rin tutadi. Chunki bu ilmiy to'plamlardan J.Hamdammov, N.Rajabov, B.O'rinboyev, E.Begmatov, R.Doniyorov, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev, I.G'aniyev, S.Olimov, T.Qurbonov, I.Mirzayev singari bir qator olimlarning Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan maqolalari o'rin olgan. Jumladan, K.Bozorboyev Navoiy shahrida bo'lib o'tgan anjumanda qilgan ma'ruzasida "Hayrat ul-abror" dostoni misolida shoirning liro-epik asarlarida frazeologizmlarning qo'llanish xususiyatlari haqida fikr yuritgan edi [22, 96-97]. B.Yo'ldoshev va A.Mamatovlar esa umuman shoir Alisher Navoiyning frazeologizmlardan foydalanishdagi mahorati haqida asosli kuzatishlarini bayon qilganlar [48, 86-88].

Sh.Egamova Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksikaning lingvostatistik tahlilini amalga oshirdi. Olib borilgan bunday lingvostatistik tahlil natijasida Navoiy asarlari tilida tahminan 1400 ga yaqin qadimgi turkiy va eski turkiy tilga taalluqli so'zlarning qo'llanishda davom etganligi aniqlandi. Ot turkumiga oid leksemalar yuqorida keltirilgan tahminan 1400 ta leksik birlikning deyarli 25,1 % ini, ya'ni 583 tasini tashkil qiladi. Sifat kategoriyasiga oid 116 ta qadimgi turkiy leksema Navoiy asarlarida qo'llanishda davom etgan. Qadimgi turkiy tildagi son turkumiga oid so'zlarning 44 tasi Navoiy asarlarida ham qo'llangan. Statistik tahlil Navoiy asarlari so'z

boyligida 33 ta olmoshlar keng qoʻllanganligidan dalolat beradi. Navoiy asarlarida qoʻllanishda davom etgan leksemalarning 557 tasi (24,0 %)ni fe'l kategoriyasiga oid soʻzlar tashkil etadi, bu fe'llarning 183 tasi tub, qolgan 374 tasi esa yasama ekanligi aniqlandi [88, 9-12].

Z.Hamidov Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarini leksik-semantik va lingvopoetik jihatdan tahlil etdi. Olimning ta'kidlashicha, “Lison-ut-tayr”da 5004 ta soʻz 21.676 marta qoʻllangan. Shundan 778 ta soʻz sof oʻzbekcha boʻlib, asar lugʻaviy tarkibini 24,0 foizini tashkil etadi. Ishning dastlabki bobida “Lison ut-tayr” asari leksikasining statistik va mavzuiy (tematik) tavsifi berilgan. Ishning keyingi bobida “Lison ut-tayr” asari tilining leksik-semantik xususiyatlari oʻrganilgan. Olimning mulohazasiga koʻra, bu asarda qoʻllangan 800 ta soʻz Alisher Navoiyning boshqa asarlarida uchramaydi. Eng muhimi, bu tadqiqotda ulugʻ shoirning “Lison ut-tayr” asarida a) soʻzlar takroriga asoslangan formal sheʼriy sanʼatlar (takrir, tasdir, tasbir, hojib kabilar); b) tovushlar uygʻunligiga asoslangan formal sheʼriy sanʼatlar (tarsiʼ, sajʼ kabilar); v) soʻzlar polisemiyasiga asoslangan sheʼriy sanʼatlar (iyhom kabilar); g) soʻzlarni koʻchma maʼnoda qoʻllashga asoslangan sheʼriy sanʼatlar (majoz, intoq kabilar); d) antonim soʻzlarni qoʻllashga asoslangan sheʼriy sanʼatlar (tazod kabilar) haqida xarakterli misollar keltirilgan [Хамидов,1982:3-18].

A.Karimov 1974-yilda “Alisher Navoiy Farhod va Shirin” dostonining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari” mavzuida nomzodlik ishini himoya qilgan edi [42]. Bu ishning dastlabki bobida “Farhod va Shirin” dostonining leksik- semantik xususiyatlari oʻrganiladi. Bu qismda doston leksikasi oʻz qatlam va oʻzlashma qatlam deb guruhlarga ajratilgan holda tadqiq etiladi. Dissertatsiyaning ikkinchi bobida esa doston tilining stilistik xususiyatlari yoritiladi. Bunda shoirning koʻp maʼnoli soʻzlar, sinonimlar, omonimlar va antonimlardan foydalanish mahorati, sheʼriy sanʼatlar yaratishda til vositalarining oʻrni masalalari oʻrganilgan. Eng muhimi, bu ishda ham “Farhod va Shirin” dostoni leksikasi haqida aniq statistik maʼlumotlar keltirilgan. A.Karimovning hisob-kitoblariga qaraganda, “Farhod va Shirin” dostonida 5431 ta soʻz qoʻllangan, bu soʻzlarning asosiy qismi umumturkiy, oʻz qatlamga mansub [42, 8-17].

M.Rahmatullayeva Alisher Navoiyning lirik asarlarida sinonimlardan foydalanish mahoratini maxsus tadqiq etdi [58, 3-14]. X.Mamadov esa Alisher Navoiyning nasriy asarlarining leksik-stilistik xususiyatlarini oʻrgandi [46, 3-8]. Olim oʻz tadqiqotida asosan Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari materiallariga tayanib ish tutgan. Ishning dastlabki bobi Alisher Navoiy nasriy asarlarining lugʻaviy tarkibini oʻrganishga bagʻishlangan, keyingi bob esa shoir badiiy prozasining stilistik xususiyatlari tahlilini oʻz ichiga oladi. Mazkur bobda ulugʻ shoirning “Mahbub ul-qulub” asarida antonim, sinonim, omonim soʻzlardan foydalanish mahorati, ishtiyoq, tanosub, iltizom, sajʼ, tarseʼ, tazod kabi sheʼriy sanʼatlar hosil qilishda til vositalaridan foydalanish mahorati yaxshi tahlil qilingan, xarakterli misollar keltirilgan. Keyingi yillarda “Navoiyga armugʻon” nomi bilan bir nechta ilmiy toʻplamlar nashr etildi. Masalan, 2001-yilda Termizda nashr etilgan shu nomdagi toʻplamga tilshunos olimlardan J.Omonturdiyevning “Alisher Navoiy mohir atamashunos”, Y.Abdurasulovning “Alisher Navo soʻz mohir taʼrifida”, Yo.Xoʻjamberdiyevning “Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonidagi ayrim joy nomlari tahlili”, A.Omonturdiyevning “Alisher Navoiy tilida oʻxshatish formalari” kabi maqolalari kiritilgan edi. 2006-yilda Toshkentda nashr etilgan shu nomdagi toʻplamning beshinchi kitobidan esa I. Yuldashvning “Navoiy va oʻzbek kitobat terminologiyasi”, R.Normurodovning “Navoiyni ifodalovchi perifrazalar”, I.Azimovning “Grammatik shakl “va” boʻlgan gaplarda sabab-natija munosabatining ifodalanishi”, M.Tojiboyevaning “Soʻzning ichki va tashqi qiyofasi” nomli maqolalari oʻrin olgan.

Mustaqillik yillarida Alisher Navoiyning diniy-tasavvufiy asarlarini oʻrganishga ham eʼtibor kuchaydi. Masalan, T.Q.Yuldashv “Navoiy va Boburning islom farzlariga bagʻishlangan asarlarida qoʻllangan sharʼiy atamalarning lisoniy tahlili” mavzuida nomzodlik ishini himoya qildi [Юлдашев, 2003:246]. Navoiyshunos olim Z.Xamidov esa Alisher Navoiyning diniy-tasavvufiy asari – “Siroj-ul-muslimiyn” asarining til xususiyatlarini oʻrganishga doir maqola eʼlon qildi [Хамидов, 2006:153-157]

Umuman olganda, Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlarini oʻrganish jarayonida tilshunos olimlar tomonidan muhim ilmiy natijalarga erishilgan. Bu tadqiqotlar Navoiy asarlarida

qo‘llangan gap qurilishi, so‘z tartibi, murakkab sintaktik birliklar hamda badiiy ifoda vositalarining o‘ziga xosligini aniqlashga xizmat qildi. Natijada Navoiy tilining nafaqat badiiy, balki grammatik jihatdan ham boy va mukammal tizimga ega ekani ilmiy asosda yoritildi. Bu esa o‘zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия. НДА. – Тошкент, 1997. – Б 206.
2. Алишер Навоий. Хамса. Нашрга тайёрловчи Садриддин Айний. – Тошкент, 1947. – Б. 190.
3. Ёкубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси. НДА. – Тошкент, 1994. – Б.24 .
4. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 6.
5. Конрад Н.И. Избранные произведения. – М.: Наука, 1978. – С. 96-97.
6. Ражабова М.Б. Алишер Навоий “Назм ул жавоҳир” асарининг манбалари ва бадиияти. НДА. – Самарқанд, 2006. – 25 б.
7. Раҳимова Г.К. Алишер Навоий шеърятига ҳасби ҳолининг бадиий талқини (“Ҳазойин ул-маоний” асосида). НДА. – Самарқанд, 1999. – 286 б.
8. Салоҳий Д. Навоийнинг шеърӣ услуби масалалари. – Тошкент, Фан, 2006. – Б. 59-149.
9. Умаров Э. Эски ўзбек луғатлари. – Тошкент, 1992. – Б. 3-35.
10. Ҳамидов З. Луғатшунослик тарихи ва қўлёзма луғатлар. – Тошкент: Адолат, 2004. – Б.10-32.
11. Ҳамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисанут-тайр» Алишера Навои. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1982. – С. 3-18.
12. Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996.– 126 б.
13. Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. Иккинчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – 134 б.
14. Эшонкулов Х.П. Алишер Навоий шеърятига самовий тимсоллар (“Бадойиъ ул-бидоя”, “Наводир ун-нихоя” девонлари асосида). НДА. – Самарқанд, 1999. – 25 б.
15. Юлдашев Т.К. Навоий ва Бобурнинг ислом фарзларига бағишланган асарларида қўлланган шаръий атамаларнинг лисоний таҳлили. НДА. – Тошкент, 2003. – 246 б.

# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ  
INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

## “ALISHER NAVOIY” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

“Alisher Navoiy” xalqaro jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Crossref.org tizimiga ham kiritiladi hamda har bir maqolaga DOI raqami beriladi.

### MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 10-15 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- maqolalar o‘zbek, turk, tojik, rus, ingliz, fransuz tillarida qabul qilinadi;
- maqolaning tarkibiy tuzilishi IMRAD formatida rasmiylashtirilishi kerak;
- maqola Times News Roman shriftida, 12 kattalikda, 1 intervalda tayyorlanadi;
- havola(snokalar)lar katta qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi [Mo‘minov 2020: 25] shaklida keltiriladi;
- maqola tomonlari chap: 2 sm, o‘ng: 2 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqolalar plagiatga qarshi tekshiriladi;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**MUROJAAT UCHUN MANZIL:**  
Tel.: +99891 527 68 22  
Telegram ID: +998915276822  
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

## ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА “АЛИШЕР НАВОИЙ”

Международный журнал “Алишер Навоий” включен в список ВАК Республики Узбекистан. Он также будет включен в систему Crossref.org, и каждой статье будет присвоен номер DOI.

### ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Объем статьи: около 10-15 страниц;
- статьи принимаются на узбекском, турецком, таджикском, русском, английском и французском языках;
- структура статьи должна быть оформлена в формате IMRAD;
- шрифт текста – Times New Roman; размер – 12 пунктов; межстрочный интервал – 1;
- сноски приводятся в квадратных скобках с указанием фамилии автора – года издания – страницы [Мўминов 2020: 25];
- параметры страницы: слева 2 см, справа 2 см, сверху и снизу по 2 см;
- статьи проверяются на плагиат;
- в одном номере журнала публикуется только 1 статья автора.

**НАШИ КОНТАКТЫ:**  
Тел.: +99891 527 68 22  
Telegram ID: +998915276822  
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

## “ALISHER NAVOIY” INTERNATIONAL JOURNAL INFORMATION LETTER

“Alisher Navoiy” International Journal is included in the list of HAC of the Republic of Uzbekistan. It will also be included in the Crossref.org system, and each article will be assigned a DOI number.

### REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article should be presented in 10-15 pages;
- articles are accepted in Uzbek, Turkish, Tajik, Russian, English, French;
- the structure of the article should be in the IMRAD format.
- the article should be prepared in Times New Roman font, 12 sizes, 1 space;
- references are given in parentheses in the form of the author’s name – date of publication - page [Muminov 2020: 25];
- sides of the article left: 2 cm, right: 2 cm, top and bottom: 2 cm;
- articles will be checked against plagiarism.
- only 1 article by the author is published in 1 issue of the journal.

**CONTACT ADDRESS:**  
Phone: +99891 527 68 22  
Telegram ID: +998915276822  
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru